

# “Obuna” xizmatini taqdim qilish qoidalariga ilova

## "To'lovlar monitoringi" Servisi tavsifi

### «To'lovlar monitoringi» servisi tavsifi

«To'lovlar monitoringi» Servisining ushbu tavsifi (Keyingi o'rinlarda - Tavsif va Servis tegishlicha) «Humans» MChJning (manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 2 B uy, STIR 306624856) keyingi o'rinlarda - Humans, noma'lum shaxslarga taklifi va ["Obuna" xizmatini taqdim etish Qoidalarining ajralmas qismi hisoblanadi.](#)

### Servisdan foydalanishning o'ziga xosliklari

1. Servisdan foydalanib, Ishtirokchi Mobil ilovada bog'langan kartalar bo'yicha amaliyotlarni ko'rishini mumkin, shuningdek amaliyotlarning umumiy tarixida qidiruv uchun turli filtrlardan foydalanishi mumkin.
2. Ishtirokchilar Servisdan quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda bittasini bajarishganda, foydalana olishadi:
  - Ishtirokchi Mobil ilovaga hech bo'lmaganda bitta bank kartasini bog'lagan;
  - Ishtirokchi Humans bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan;
  - Ishtirokchi Humans'ning Sadoqatlik dasturining amaldagi ishtirokchisi.
3. Servisga birinchi marta ulanganda, Ishtirokchi Servisga ulangan oyning 1 sanasidan amalga oshirilgan amaliyotlar haqidagi ma'lumotni ko'ra oladi.  
Servis faolligining butun davri monaynida barcha amaliyotlar amaliyotlarning umumiy tarixi va 2 badda keltirilgan muayyan to'lov vositasi bo'yicha amaliyotlar tarixida aks ettiriladi.  
Servis doirasida amaliyotlar haqidagi ma'lumotni saqlashning maksimal muddati 1 yilni tashkil qiladi.  
Servisga qayta ulanganda, Ishtirokchi oldin saqlangan barcha amaliyotlarni ko'ra oladi, jumladan bog'lanishi o'chirilgan kartalar bo'yicha ham.  
Servisdan foydalanish vaqtida yangi bank kartasi bog'langanida, amaliyotlarning umumiy tarixida karta bog'languniga qadar ko'pi bilan bir oy oldin amalga oshirilgan amaliyotlar aksettiriladi.
4. Foydalanuvchi Mobil ilovada istagan bog'langan kartani o'chirishi mumkin. Ilovadan karta o'chirilganida, Servis o'chirilmagan bo'lsa, barcha avval aks ettirilgan amaliyotlar amaliyotlar tarixida ko'rinadi.
5. Servis taqdim etilishi mumkin bo'lgan bog'langan bank kartalarining maksimal soni - 10ta (o'nta).
6. Servisdan foydalanishning bir Hisob davri uchun narxi 1 500 so'mni tashkil qiladi.
7. Servis uchun trial davr 30 kun va Ishtirokchi tomonidan va Ishtirokchi Servisni birinchi marta ulagan sanasidan boshlab hisoblanadi, shu davr mobaynida Servis to'lovsiz taqdim qilinadi.
8. Servisni ulab, Ishtirokchi bog'langan kartalarning ma'lumotlari, bank kartalarida pul mablag'larining harakati va ulardan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar haqidagi ma'lumotlarni Humans'ga taqdim etishga roziligini beradi.

9. Servisdan foydalanganda Ishtirokchi amallarni vijdonan bajarishi, uchinchi shaxslar huquqlarini buzmasligi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligining me'yorlariga rioya qilishi shart.

10. Har qanday asosda Servis o'chirilganda, Ishtirokchi Mobil ilovada Servis amal qilishi davrida o'tkazilgan amaliyotlarni ko'ra oladi, biroq bir qator funksiyalardan, masalan qidiruv uchun filtdan foydalanib bo'lmaydi.